

201

Alisher Navoiy

nomidagi
O'zbekiston MK

«Hayotimizdagi bugungi ulkan o'zgarishlar, islohotlarimiz mantig'i barchamizdan yangicha ishlashni, yangi g'oya va tashabbuslar bilan maydonga chiqishni talab etmoqda».

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat MIRZIYOYEVning Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan yo'llagan bayram tabrigidan

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N: 26 (67243)
2019-yil 1-iyul

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi ISSN-2010-6092

Ta'tilda oromgohlar - Quchog'iga chorlaydi

Yer-u ko'kni qizdirib,
Oltin quyosh porlaydi.
Ta'tilda oromgohlar -
Quchog'iga chorlaydi.

Soy suvlari sharqirar,
O'ynashib quvlashmashoq.
Erkalaydi ularni,
Qum-toshlarga boy qirg'oq.

Salom berar bosh egib,
Ignabargli archalar.
Qushlarga jo'r bo'lishib,
Irmoqchalar nay chalar.

Ayamaydi tabiat -
Bizdan noz-ne'matini.
Biz ham unga tutaylik,
Farzandlik himmatini.

Zahro HASANOVA

O'rta Osiyo xalqlari orasida, xususan, o'zbekistonlik ijodkorlar silsilasida ikki, uch tilda barobar badiiy, ilmiy asarlar yaratgan ijodkorlar bisyor bo'lgan. XIX asr Buxoro adabiy muhitida ana shu qutlug' an'anani muvaffaqiyat bilan davom ettirgan adiblardan biri Qori Rahmatulloh Vozehdir.

QUTLUG' AN'ANA DAVOMCHISI

Bo'lg'usi ko'p qirrali san'atkor Qori Rahmatulloh Vozehd 1817-yili Buxoroda hunarmand oilasida tug'ilgan. Dastlabki ta'limni oilada olgan Vozehd madrasada o'qib tarix, tib, matematika, astronomiya, fikh, mantiq ilmlarida kamolot kasb etadi, arab va turkiy tilni mukammal o'rganadi. Mashhur adabiyotshunos Afzal Pirmastiy «Vozehd fors, arab va turkiy tillarda hammaidan o'tkazib she'r yozardi», deb ta'kidlagan. Uning favqulodda salohiyatini sezgan hokimlar saroy ishlariga (1853-y) jalb etadilar. Ammo taxtga Amir Muzaffar o'tirgach (1860–1885-yillar) saroyini tark etib, Sharq mamlakatlari bo'ylab safarga o'tlanadi: Hijoz, Eron, Turkiya mamlakatlarini kezib, 1867-yili qaytib keladi. 1894-yili ona yurtida vafot etadi.

Qori Rahmatulloh Vozehd arab, o'zbek, tojik tillarida nasriy va she'riy asarlar yozgan uch tilli ijodkordir. Afsuski, sho'irning she'rlar devoni bizgacha saqlanib qolmagan yoki hali topilmagan. Uning turli to'plam, ba-yoz hamda tazkiralarda qasida, g'azal, ruboiy, qit'a, masnaviy, muxammas, fard kabi janrlardagi 2400 baytdan iborat she'rlari bizgacha yetib kelgan. Ularda bir tomondan, yuksak insoniy fazilatlar, ilm-ma'rifati, do'stlik, mardlik va muruvvat targ'ib va tashviq etiladi, ikkinchi tomondan, o'zining og'ir ahvoli, muhtojligidan shikoyat qiladi: zulm, zo'rlik, adolatsizlik, ilm-adab ahlining xor etilishi, munofiqlik, riyokorlik-u ikki-yuzlamachilikni qattiq fosh etadi, tanqid qiladi. Umuman, Vozehd she'riyatida mavjud ijtimoiy tuzum illatlarini tanqid ruhi ancha baland.


Adib Nosir Xisravning safarnomanavilik an'anasini davom ettirib, Vozehd «Savoneh ul masolik va farosih ul mamolik» asarini yozgan. Unda yozuvchi Marv, Ashxobod, Chorjo'y, Qorako'l, Boku, Tiflis, Botumi, Bag'dod, Tehron, Mashhad, Kirmonshoh kabi o'nlab shaharlarning tuzilishi, aholisi, madaniyati, hayoti, tili, urf-odati, kasb-kori, aholining turmush tarzi, udumlari haqida ancha batafsil ma'lumot beradi, buyuk kishilar, adiblar bilan bo'lgan muloqotlarni naql etadi. Bu asar zikr etilgan xalqlarning tarixi, geografiasini, turmush madaniyati, etnografiasini, toponimikasini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Zeroki, naql-u hikoyatlar kitobxonga olamjahon adabiy estetik zavq bag'ishlashi bilan birga bilim beradi.

Yozuvchining qo'lyozmalari to'la saqlanib qolgan ikkinchi asari bu 1881-yili yozilgan «Koni ne'mat va xoni lazzat»dir. Ikki jildidan iborat bu asar o'sha davrning o'ziga xos taomnomasidir. Zeroki, unda mazkur zamonda Buxoroda tayyorlanadigan, pishiriladigan barcha taomlar ancha batafsil sharhlangan. Jumladan, risolada nonning 18 xili, oshning 109 xili, xolvani 169 xili, 33 xil murab-boning pishirish, tayyorlash usullari mukammal bayon qilingan. Shuning uchun bu kitob yurtimiz taomlari tarixini, ularni tayyorlash yo'llarini o'rganishda o'ziga xos manba hisoblangan. Ushbu asarlar fors-tojik adabiyotidagi klassik nasrning eng yaxshi namunalari hisoblanishi bilan ham diqqatga molikdir.

Ayni paytda, nazm va nasrda o'ziga xos xalqona sodda uslubni qo'llagan. Vozehd nozikbin nazariyotchi, to'plovchi ham bo'lgan. U «Tuhfat ul ahbob fi tazkirat-il as'hob» asarida Buxoro, Qo'qon, Samarqand, Hisor, Kattaqo'rg'on, Xo'jand, O'ratepa, Qorategin adabiy doiralari qisman Eron-u Hindistonda o'sha davrda yashagan 45 ta ijodkorlar haqida ma'lumot berib, asarlaridan namunalari keltirgan. Boshqa tazkiranavislardan farqli o'laroq, Vozehd asarda zikr etilgan adiblar haqida mukammalroq dalillar keltirishga, asarlarining janr, mazmun, g'oyaviy yo'nalishi, eng muhimi, badiiylik jihatidan o'ziga xosligini alohida ta'kidlab, tahlil qilib ko'rsatishga jazm qilgan. Ushbu tazkira XIX asr O'rta Osiyo xalqlari adabiyoti tarixini o'rganishda kamyoq manba sifatida qimmatlidir. Professor Yu.Salimov Vozehdning she'riy san'atlar, tibbiyot, tabiatshunoslikka doir asarlar yozganligini ham ta'kidlagan, yozuvchi asarlari g'oyatda ham-mabop ekanligini qayd etgan.

Mohir nasrnavis, she'riyatida xos uslub sohibi bo'lgan Vozehdning ijodi XIX asr Buxoro adabiy muhitida alohida o'rin va mavqega ega bo'lib, adib merosi tojik adabiyotshunoslaridan R. Hodizoda hamda T. Ne'mat-zodalar tomonidan o'rganilgan.

Hamidjon HOMIDIY,
filologiya fanlari doktori, professor



BESH TASHABBUS – QANOT

Andijon viloyatining Baliqchi tumanidagi 12-DIMida Prezidentimizning 5 ta muhim tashabbusi yuzasidan tizimli ishlar tashkil qilingan.

1-tashabbus bo'yicha «Manzara» janrida rasmlar tanlovi, Muhammad Yusuf she'rlaridan ifodali o'qish bo'yicha tanlovlar o'tkazildi. Ularda 6 – 8-sinf o'quvchilari ishtirok etgan bo'lsa, 2-tashabbus – shaxmat, shashka, arqon tortish musobaqalarida 5 – 6-sinf o'quvchilari faol bo'ldi. 3-tashabbus bo'yicha «Eng yaxshi matn muharriri», «Eng yaxshi PowerPoint dasturchisi», «Eng yaxshi Excel dasturchisi» nominatsiyalari bo'yicha bellashuvlar yanada qiziqarli o'tdi.

Shuningdek, «Men sevgan asar» insholar tanlovida, «Zamonamiz qahramonlari» mavzusidagi suhbatda ishtirok etishni istagan o'quvchilar soni yanada ko'paygani davraga o'zgacha fayz kiritdi.

Uyushqoqlik va ko'tarinki ruhda tashkillashtirilgan mazkur tadbir va tanlovlar g'oliblari maktab ma'muriyati tomonidan munosib taqdirlandi.



YOSHLIKNING BETAKROR DAMLARI

Butun respublikamizda keng nishonlangan Yoshlar kuni bizning Krasnogorsk shaharchamizda ham ko'tarinkilik bilan tantana qilindi.

Erta tongda karnay-surnay sadolari bilan boshlangan bayram sportning yugurish, velomarafon va futbol kabi turlariga oid musobaqalar bilan qizg'in tus oldi. Bellashuvlardan so'ng namoyish etilgan bayram dasturida esa shaharchadagi 44-, 45-, 46-umumta'lim maktablari, kollej hamda 1-Bolalar musiqa va san'at maktabi o'quvchilari ishtirok etishdi. Yurtboshimiz tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus ijrosini ta'minlashga intilayotgan ta'lim maskanimizning Yoshlar ittifoqi va «Kamalak» bolalar tashkiloti sardorlari «Bayramga bizning ham tuhfamiz bor» deya, «Kelajakning 5 ta muhim bekatini» nomli loyiha bilan barchaning diqqat markazida bo'lishdi. Mazkur tadbir yoshlarni birlashtirib, do'stlashtirgani bilan yanada ahamiyatli bo'ldi. Unda faol ishtirok etganlar esa diplom va tashakkurnoma bilan taqdirlandi.

Betakror yoshlik damlarimizning har bir kunini mana shunday bayramlarga aylantirish o'z qo'limizdadir.

Maftuna MURODOVA,
Toshkent viloyati, Angren shahridagi
46-umumta'lim maktabi yetakchisi

HAR BIR KUNIMIZ ZAVQOLI



Suratda ko'rib turganingiz – yozgi ta'tilni maroqli o'tkazayotgan tengdoshlaringiz poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 244-umumta'lim maktabi o'quvchilaridir. Ertalabki badantarbiyadan so'ng bolalar «Besh tashabbus – besh imkoniyat» shiori ostida faoliyat yuritayotgan to'garaklarda vaqtlarini mazmunli o'tkazishmoqda. Haftaning har juma kunlari shahar bo'ylab sayrga chiqayotgan yosh sayohatchilar esa, «Sayohat – tanga rohat ekan», deyishmoqda.



Surxondaryo viloyati, Denov tumanidagi 17-Davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktab-internati o'qituvchilari ham beshita muhim tashabbus ijrosini ta'minlash maqsadida talaygina ishlarni amalga oshirishmoqda.

Bolaligimda bobom menga Navoiyning «Xamsa» asarini sovg'a qilgan edi. O'sha kitobni o'qib menda mutolaaga muhabbat uyg'ongan bo'lsa, ajab emas. Ustozim Ozoda opa Hazratqulova ham meni hamisha ko'proq badiiy asarlar o'qishga undardilar. Hatto qo'limga o'qishim kerak bo'lgan kitoblar ro'yxatini berardilar.

KITOB DEGAN DO'STIM yutuqlarga erishishimga ko'maklashmoqda

Bir kuni sevimli yozuvchim Xudoyberdi To'xtaboyev bilan suhbatlashganimda, ular menga shunday maslahat berdilar: «O'z oldingga qo'ygan maqsading yo'lida o'qib-organing, intilsang hech qachon yutqazmaysan». Kattalar aytganicha bor-da, mana shu kungacha turli tanlov- u bellashuvlarda g'oliblikka erishmoqdaman.

Yaqinda O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi tomonidan o'tkazilgan «Mustaqillik mening tasavvurimda» nomli ko'rik-tanlovning she'riyat yo'nalishida tumanda birinchi o'ringa sazovor bo'ldim. «Yosh kitobxon – 2019» tanlovining tuman bosqichida ham yuqori o'rinni egalladim. Hozirda bellashuvning keyingi bosqichiga



tayyorlanmoqdaman. Kuni kecha esa «Eng yaxshi kitobxon maktab» bellashuvida jamoamiz bilan qatnashib, shahar bosqichiga yo'llanma oldik. Biz o'zimizga «Kitob men uchun juda muhim» degan shior tanladik. Bu shior zamirida Deni Didroning «Odamlar kitob o'qishdan to'xtasalar, fikrlashdan ham to'xtaydilar», «Kitobsiz aql – qanotsiz qush» degan fikrlari mujassam.

Mana, 9-sinfni ham qizil shahodatnoma bilan yakunladim. Bu men uchun sharaf. Fursatdan foydalanib, «Tong yulduzi» gazetasi tahririyatidagi ustozlarimga ham minnatdorchilik bildirdim.

Aziz tengdoshim, men ham siz kabi oddiy o'quvchiman. Shunchaki, kitob degan do'stim mening yutuqlarga erishishimga ko'maklashmoqda. Sizning ham ana shunday do'stlaringiz ko'p bo'lsin!

Otabek ORTIQOV,
poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 169-umumta'lim maktabi o'quvchisi

O'RIK, OLMA, GILOS YEB...

Mana, ko'z ochib yunguncha ta'tilning birinchi oyi yakunlanib, ikkinchi oyi ham boshlandi. Oromgohlarda bolalar zavq-u shavqqa to'lib hordiq chiqarishmoqda. Jumladan, maktabimizda ham ajoyib oromgoh faoliyat yuritmoqda. U yerda o'quvchilarning turli o'yinlar o'ynab, kitob o'qishlari, sayrga chiqishlari hamda suv havzasida cho'milishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Bir so'z bilan aytganda, sirdaryolik bolalar yozni soz o'tkazishmoqda.

Siz-chi, aziz tengdoshlar yozni qanday o'tkazyapsiz? Mevazor bog'larda totli mevalardan totinib, muzdek suv havzalarida cho'milib, ta'til gashtini surayotgandirsiz-a?! Lekin ehtiyotkorlik choralarini ham unutmang. Cho'milish taqiqlangan joylarda cho'milmang! Tabiat qo'ynida

dam oling. Lekin uni ifloslantirmang, borliqqa chiroy bag'ishlab, yoqimli ifor taratib turgan gullarni uzmang! Tabiat bizga in'om etgan go'zalliklarni qadriga yeting.

Yozuvchi Shukur Sa'dulla aytganidek: o'rik, olma, anor, gilos kabi mevalarni mazza qilib tanovul qilib,

vitaminlarga to'yinib oling, so'ngra yil bo'yi sog'lom va baquvvat bo'lib, a'lo baholarga o'qishni davom ettiring.

Odina A'ZAMQULOVA,
Sirdaryo viloyati, Boyovut tumanidagi 19-umumta'lim maktabi o'quvchisi



Maktabimiz o'quvchilari ta'tilni jonajon maskanlari qoshida tashkil etilgan yozgi sog'lomlashtirish oromgohida o'tkazadigan bo'lishdi.

MAROQLI VA MAZMUNLI HORDIQ

Vohidjon Ibrohimov rahbarlik qilayotgan ushbu o'quv maskanida tashkil etilgan oromgohda beshta tashabbus doirasida turli to'garaklar qatorida ingliz tili to'garagi bolalarning sevimli mashg'ulotiga aylangan. To'garakda bolajonlar xorijiy tilda ravon so'zlashishni, to'g'ri yozishni o'zlashtirmoqdalar. «Yozni «Kamalak» bilan o'tkaz!» dasturi doirasida quvnoq estafeta, rasm chizish, ingliz tilida she'r o'qish singari musobaqalar tashkil etilmoqda. G'olib o'quvchilar esa esdalik sovg'alari bilan taqdirlanmoqdalar.



– Men tanlovda ingliz tilida she'r yodlab, g'olib bo'ldim. Maktab ma'muriyati tomonidan o'n nomdagi kitoblar hamda tashakkurnoma berildi. Bu singari tanlovlarda qatnashib, yanada ko'proq kitoblar yutib olmoqchiman. Bu kitoblar ta'til kunlarimga mazmun baxsh etadi, – deydi 4-sinf o'quvchisi Sardor Abduraimov.

Maktabning Yoshlar ittifoqi yetakchisi Gavhar Abduhakimova uyushtirayotgan turli bellashuvlar bolajonlarga olam-olam zavq bag'ishlamoqda.

Zilola SIROJIDDINOVA,
Toshkent viloyati, Angren shahridagi
41-umumta'lim maktabining ingliz tili fani o'qituvchisi

YOSHLAR OYLIKIDA



Yozgi ta'tilning birinchi – Yoshlar oyligi deb belgilangan oyini har biringiz juda mazmunli, maroqli tarzda o'tkazgan bo'lsangiz, ajab emas. Bizning maktabimiz o'quvchilari ham oylik davomida ko'plab yutuqlarga erishishdi.

«Oftoboy» sport sog'lomlashtirish maydonchasida bo'lib o'tgan ajoyib tadbirda bolajonlar beshta muhim tashabbus ijrosini amalda namoyish etdilar. Katta konsert dasturi ko'rinishida tashkillashtirilgan bayramda «Sharq yulduzlari», «Ko'zmunchoq» ashula va raqs ansambli, tumandagi «Barkamol avlod» bolalar markazining badiiy gimnastika guruhlari o'z chiqishlari bilan ishtirok etishdi. Ta'lim dargohimizda tashkil etilgan «Olimp Lider» jamoasi va «Oftoboy» sport sog'lomlashtirish maydonchasidagi guruhlarining chiqishlari ham tashabbuslar ijrosiga bag'ishlandi. Birinchi tashabbus bo'yicha Shahina Musurmonova, Mubina Zokirjonova, Javohir Faxriddinov, Maftuna Saparova faolligni qo'ldan berishmadi. Ikkinchi tashabbusga ko'ra o'z iqtidorini ko'rsatgan 4-«B» sinf o'quvchisi Farzona Yusupova sovrinli o'ringa sazovor bo'ldi. G'oliblarni Yoshlar ittifoqi tuman mahalliy Kengashi raisi Farrux Mahmudxo'jayev va «Kamalak» bolalar tashkiloti raisi Jaloliddin Shomurodov faxriy yorliq va sovg'alari bilan taqdirladi.

Tadbirda ishtirok etgan 300 dan ziyod bolajonlar uning tashkilotchilari – maktabimizning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Bahodir Toshtemirov hamda Yoshlar ittifoqi yetakchisi Shahnoza Jo'rayevaga minnatdorchilik bildirishdi.

Mohina OMAROVA,
Toshkent shahar, Yashnobod tumanidagi
153-umumta'lim maktabi o'qituvchi

YOZGI TA'TIL – BIR YILGA TATIR



Farg'ona viloyati-ning so'lim go'shalaridan birida joylashgan «Koinot» bolalar oromgohining 1-mavsumida hordiq chiqargan o'quvchilar koinot bo'yab «sayr»ga chiqqandek his qilishdi o'zlarini.

Oromgohda dam olish uchun kelgan 277 nafar o'quvchilar 1-mavsumning ochilish marosimiga turli chiqishlar tayyorlashdi, kimdir she'r yodladi, yana kimdir raqsga tushdi. Bayram tadbiridan so'ng o'quvchilar bir-birlari bilan tanishib, o'qishlari, sevimli mashg'ulotlari haqida qizg'in suhbat qurishdi.

Husanboy aka Qosimov rahbarlik qilayotgan ushbu oromgohda har bir tong yangi tadbirga yo'l ochadi.

«Ertak qahramonlari»da,

bolajonlar sevimli ertaklari qahramonlari siymosini yaratishsa, «Oromgoh malikalari-yu shahzodalari» tanlovda o'z mahoratlarini sinovdan o'tkazib, malika, shahzoda degan nomga erishadi. «Quvnoq startlar»da ham jismonan chiqib, ham g'oliblikka intilishadi. «Kino va teatr kuni»da o'quvchilar sevimli badiiy filmidan yoqtirgan obrazini talqin qilishadi. «Quvnoq ekspress» musobaqasi esa bolajonlardan yakdillik, chaqqonlik bilan harakat qilishni talab qiladi. Bunday

tadbirlarni o'tkazishga Bosh tarbiyachi yordamchisi Dilnoza Ibragimova bosh-qosh. U bolajonlarning oromgohda o'tgan kunlarini maroq bilan xotirlanishini istaydi.

– Oromgohda Ozoda ismli qiz bilan tanishdim. U bilan kutubxonada turli kitoblar mutolaa qildik, tanlovlarda qatnashdik. Mavsum yakunida Ozoda bilan tez-tez ko'rishib turishga kelishib oldik, – deydi 4-guruhdan Farangiz Xotamova.

– Barcha bolalar qatori menga ham sport bellashuv-

lari juda manzur bo'ldi, – deydi shu guruhdan Umarjon Yusupov. – «Quvnoq startlar», voleybol, shashka, futbol bo'yicha o'tkazilgan musobaqalarda jamoadoshlarim bilan birga harakat qildik. Axir bejizga «Kuch – birlikda» deyilmagan-ku...

Kattakon suzish havzasida miriqib cho'milish barcha bolajonlarga yoqishi tabiiy. Suzish musobaqasi ishtirokchilari chalqancha, sho'ng'ib suzish bo'yicha o'zaro bellashishadi.


Mavsumning yopilish

kuni yaqinlashgani sayin bolalarning kayfiyati biroz tusha boshladi. Chunki oromgohdagi o'tkazgan zavqli kunlari, do'stlari bilan xayrlashish onlari yaqinlashayotgan edi-da. Ammo ular tushkunlikka tushishmadi. O'zaro telefon raqamlari, manzilgozlari, fotosuratlarini almashishdi. Xullas, miriqib dam olib, yangi o'quv yiliga kuch-g'ayrat yig'ishdi. Yozgi ta'til bir yilga tatir, deb bejiz aytilmagan-ku axir!

Ozoda TURSUNBOYEVA

DILAFRO'Z - «AVRORA - 2019» FESTIVALI G'OLIBI BO'LDI

Dilafro'z Qudratova
- Namangan viloyatining Pop tumanidagi 67-umumta'lim maktabi o'quvchisi. Shu bilan birga u tumandagi 7-Bolalar musiqa va san'at maktabining fortepiano sinfida tahsil oladi.



egalladi.

O'tgan hafta Sochi shahrida bolalar va o'smirlar o'rtasida «Avrora - 2019» xalqaro festivali bo'lib o'tdi. Unda Dilafro'z ham qatnashish baxtiga muvaffaq bo'ldi.

Go'zal va maftunkor shahar O'zbekistondan tashrif buyurgan ishtirokchilarni iliq kutib oldi. Mehmonlar Qora dengiz bo'yida joylashgan «Sochi park» mehmonxonasida miriqib dam olib, shaharning xushmanzara joylariga sayohat qildilar, dengiz havosidan bahramand bo'ldilar.

- Festivalda turli mamlakatlardan tashrif buyurgan iste'dod egalari xoreografiya, vokal, cholg'u, teatr yo'nalishlari bo'yicha o'z mamlakatlari sha'nini himoya qilishdi, - deydi Dilafro'zning ustози Farida Shodmonxo'jayeva. - Shogirdim Shoppening



«Vals»i va Muxtor Ashrafiyning «So'zsiz qo'shiq» kuyini maromiga yetkazib ijro etdi.

Asar yakunida gulduros qarsaklar chalinib, u muxlislar olqishiga sazovor bo'ldi.

Dilafro'z Qudratova festivalda 2-o'rinni egallashga

muvaffaq bo'ldi. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, hayotda ustoz e'tirofidan-da buyuk martaba bo'lmasa kerak!

Ustozlari e'tirofiga musharraf bo'layotgan Dilafro'zga esa ijodiy barkamollik tilaymiz.

Musiqa maktabida o'qish davomida u juda ko'p yutuqlarga erishdi, jumladan, «Kamalak» bolalar ijodiy

festivali respublika bosqichida 1-o'rin, «Yagonasan, muqaddas Vatan» respublika ko'rik-tanlovida 3-o'rinni

Lesson 26

VOCATION TIME WORD SEARCH

M	P	A	M	E	L	I	B	L	E	T	S	O	H	
Y	O	H	V	I	X	R	N	A	T	O	N	K	L	I
G	E	T	R	O	J	C	N	E	X	R	T	F	E	Y
A	F	B	E	Y	E	N	U	O	G	X	I	M	I	E
X	W	S	A	L	N	D	U	R	N	D	K	P	S	N
G	E	T	A	W	A	Y	B	C	S	X	O	A	U	R
K	C	E	K	A	S	P	E	E	K	I	N	L	R	U
U	V	Y	A	W	M	A	R	T	R	L	O	I	E	O
V	O	Y	A	G	E	L	E	V	A	R	T	N	P	J
J	U	B	I	R	E	L	A	X	A	T	I	O	N	T

Words may be spelled forward, backward, downward, upward or diagonally.

Excursion

Getaway
Hostel
Inn
Journey
Keepsake

Leisure

Lodge
Map
Motel
Relaxation
Tramway

Travel


Trip
Voyage



Muhammadsharif FAYZULLAYEV
Vocations which we wanted to pursue, but did not, bleed like colors, on the whole of our existence.

Honore de-BALZAC

Where your talents and the needs of the world cross; there lies your vocation.



ARISTOTLE
The secret of success is making your vocation your vocation.

Mark TWAIN




Friedrich NIETZSCHE
A vocation is the backbone of life.

Friedrich NIETZSCHE

Mother TERESA
Our vocation, to be beautiful, must be full of thought for others.

Mother TERESA



KEEP YOUR DREAM

I have a friend named Monty Roberts who owns a horse ranch in San Isidro. He has let me use his house to put on fund-raising events to raise money for youth at risk programs.

The last time I was there he introduced me by saying, «I want to tell you why I let Jack use my horse. It all goes back to a story about a young man who was the son of an itinerant horse trainer who would go from stable to stable, race track to race track, farm to farm and ranch to ranch, training horses. As a result, the boy's high school career was continually interrupted. When he was a senior, he was asked to write a paper about what he wanted to be and do when he grew up.

«That night he wrote a seven-page paper describing his goal of someday owning a horse ranch. He wrote about his dream in great detail and he even drew a diagram of a 200-acre ranch, showing the location of all the buildings, the stables and the track. Then he drew a detailed floor plan for a 4,000-square-foot house that would sit on a 200-acre dream ranch.

«He put a great deal of his heart into the project and the next day he handed it in to his teacher. Two days later he received his paper back. On the front page was a large red F with a note that read, See me after class.»

«The boy with the dream went to see the teacher after class and asked, Why did I receive an F?»

«The teacher said, This is an unrealistic

dream for a young boy like you. You have no money. You come from an itinerant family. You have no resources. Owning a horse ranch requires a lot of money. You have to buy the land. You have to pay for the original breeding stock and later you'll have to pay large stud fees. There's no way you could ever do it.» Then the teacher added, If you will rewrite this paper with a more realistic goal, I will reconsider your grade.»


«The boy went home and thought about it long and hard. He asked his father what he should do. His father said, 'Look, son,

you have to make up your own mind on this. However, I think it is a very important decision for you.' «Finally, after sitting with it for a week, the boy turned in the same paper, making no changes at all.

He stated, «You can keep the F and I'll keep my dream.»

Monty then turned to the assembled group and said, «I tell you this story because you are sitting in my 4,000-square-foot house in the middle of my 200-acre horse ranch. I still have that school paper framed over the fireplace.» He added, «The best part of the story is that two summers ago that same schoolteacher brought 30 kids to camp out on my ranch for a week.» When the teacher was leaving, he said, «Look, Monty, I can tell you this now. When I was your teacher, I was something of a dream stealer. During those years I stole a lot of kids' dreams. Fortunately you had enough gumption not to give up on yours.»





(Shoir Tolib Yo'ldoshning 100 yilligiga)

Bolalarning sevimli
Shoiri Tolib Yo'ldosh.
She'rlari mazmunida,
Balqirdi go'yo quyosh.

Davralarda ko'p bo'lib,
She'r, masallar o'qigan.
Sho'xchan o'g'il-qizlarga,
Odobdan tug' to'qigan.

TO'G'RI SO'ZNING YO'Q XATOSI

Ustozning «Non tanlama»,
Degan she'ri ta'sirli.
So'zni so'zga ulashi zo'r,
Qofiyasi ham sirli.

Qarang, shoir bunday yozgan:
«Non tanlama» she'rini.
O'zgartib bo'lmas aslo,
U yerini, berini...

«Nega biz non tanlamaymiz,
Sen tanlaysan?!
Esing kirs, bolajonim,
So'ng anglaysan!
Sag'al suvi qochgan bo'lsa,
Qattiq deysan!
Tokay endi bug'i chiqib,
Tursa yeysan?!
Ushog'i ham non-ku, uni
To'kib-sochma!
Aziz tutgin, uvolga hech
Sen yo'l ochma!»

Shoiming bu xitobi,
Nonni aziz bil, dedi.
Oqmi, qora bo'lsa ham,
Uni aziz qil, dedi.

«Gapning joni» she'rida,
Ota o'g'lin anglab dedi.
Savoliga javoblarni,
Sharhlagani bunday edi:

«Gapni yaxshi-yomoni bor,
Kamida ming tomoni bor.
Tishi ham bor, ishi ham bor,
Yozi ham bor, qishi ham bor.
Ana shunda der otasi,
To'g'ri so'zning yo'q xatosi».

Qarang, lo'bar so'zlarni,
Bahorlalar kuzlarni.
Uqqan uqib amallar,
Qalbiga so'z qamallar.

Ustoz shoir «Yer»ni sharhlab,
Bahosini bo'lmas narxlab.
Xitoblanib Yerga ta'rif,
Bera olgan, o'qi Orif.

«Tap-taqir cho'l bo'lsin – sen,
Parvarish et, gullaydi.
Yerni boqsang boqadi,
U ko'zingga yoqadi.

Yerni gapirgani shu,
Gapirtirgan biz, bolam.
Mehnat qilsa el omon,
Gapirar butun olam».

Ibrat, hikmat so'zlarni,
She'r qopiga sololgan.
Bolalarning nigohidan
Talay ilhom ololgan.

Bola ko'rsa ko'cha-ko'yda,
Gapga solgan so'roqlab.
Beg'ubor javoblarin,
O'rib olgan o'roqlab.

Ustoz Tolib Yo'ldoshning,
She'r bog'in oraladim.
O'qib talay she'rini,
Shu she'rmi qoraladim.

Bolalar she'riyatini,
Shoiri Tolib Yo'ldosh.
She'rlari mazmunida,
Hali ham balqir quyosh.

Nabijon ERMAT

(Davomi. Boshi o'tgan sonda)

MATRAYIMNING SADOQATI

Bo'rilar qo'raga ikki-uch yilda hujum qilishi ma'lum bo'lsa-da, ularning bu yilgi tashrifi sir edi. Qaysi ma'nodaki, ular necha yil oldin kelgani noma'lumligicha qolgandi. Men qo'raga olib tushadigan so'qmoq yo'l oldidagi xarsangtosh ortiga, Matrayim esa chap tomondagi butalar orasiga berkinib oldi.

– Ko'k bo'rilar uyida tinchgina o'tirsa bo'lmaydimi? – dedi birozdan keyin Matrayim golf tayog'ini taqillatib. Mahallamiz bolalari Matrayimdan ko'ra uning tayog'idan ko'proq qo'rqardi. Chunki Matrayim to'pni urganda to'p bir tomonga, tayog'i ikkinchi tomonga uchib ketardi. O'ng qoshimdagi chandiq izlari ham shundan.

– Ular qachon yetib keladi?
Men yana indamadim. Dushman sezib qolishi mumkin. Matrayimga esa baribir. Gapiraveradi. Men, kelishyapti, degan ohangda qo'limni ko'tardim.

– Qo'l ko'tarmasdan gapiraver.
Hozir darsdamassan-ku! – dedi Matrayim hirlinglab.

Tomi ketgan! Matrayimga nisbatan chiqargan xulosam adolatlari edi.

– Bir narsa desang-chi, – dedi yana Matrayim ming'irlab.

– Dard deyman, – dedim ach-chiqilab.

– Ha, ha, – dedi Matrayim.
– Bo'rilar kelishi og'ir dard.

Ikkinchi diagnozim: «tochna tomi ketgan»...

Shu payt uvillagan tovush eshitildi-yu, Matrayimning ovozi o'chdi. Oraga sukunat cho'kdi. Og'riqli sukunat. Hatto Matrayimning nafas olishi ham eshitilardi. Uvillagan tovushlar yaqinlashib, kuchaydi-da, yana jimlik cho'kdi. Bu jimlik nazarimda, uzoq davom etdi. Birdaniga olatasir boshlandi. Odamlarning baqir-chaqiri, bo'ribosarlarning dahshatli akillashi eshitildi. Odamlar bo'rilarini quyvay boshlashdi.


Miyamdagi «fleshka»ga yana to'rtlik yozildi:

Qishloq ahli birlashib,
Bo'rilarini quvlashdi.
Qorong'ulik sababli –
Ular yo'ldan adashdi.

Bo'rilar juda yirtqich, aqlli va jasur jonzot. Odam adashadi-yu, bo'ri adashmaydimi?! Bo'rilarining bir to'dasi Matrayim biqinib yotgan buta yoniga kelib to'xtadi. Qorong'ida ularning ko'zlari yonib turardi. Men bu voqea qay tarzda davom etishini kuzata boshladim. Hujumga o'tish uchun biroz fursat bor edi. Bo'rilar nima uchundir to'xtab turardi. Nazarimda, ular sardorlarini kutishayotgandi. Bunday bo'lmasa-chi? Matrayimni sezib

MEN, MATRAYIM VA TAMTUMBOY

(Hikoya)



qolishgan bo'lsa-chi?! Yuragimni vahima bosdi. Vaziyat qaltis edi. Shu payt bo'rilar buta tomon yura boshlashdi. Jon holatda:

– To'xtanglar! – deb qichqirib yubordim. Tovushim shu darajada baland chiqdiki, tog'lardagi toshlarga urilib, aks sado berdi.

– To'xtanglar, to'xtanglar, to'xtanglar! Bo'rilar to'xtab, men tomonga o'girildi.

Men xarsangtosh yonidan sakrab, yo'q, uchib tushdim, go'yo. Xayolimda Chingachguk (hindular sardori) edim. Bo'rilar tishlarini g'ichirlatgan

Bahrom AKBAROV, bolalar yozuvchisi

men tomon burildi. Ilhomning topgan vaqtini qarangi, yana she'r yozildi:

Tishlarin g'ichirlatib,
Bo'rilar kelar edi.
Nazarimda, sardori –
O'qrayib shunday dedi:

– Bu yoqqa kel, bolakay,
Kim zo'rigin bilamiz.
Qo'rqma, hozir yemayman,
Or uchun jang qilamiz.

Shu payt butalar orasidan Matrayim chiqib kelsa bo'ladimi?! Uning ko'rinishi juda vajohatli edi. Uni avval bu holatda sira ko'rmagandim.

– Ey, bo'rilar boshlig'i. Iye, nimalar deyapman o'zi, sardori ha, ha sardori, do'stinga tegma! Agar uni yemoqchi bo'lsang, avval meni yeyaqol!

Matrayim bu so'zlarni chin dildan aytayotganiga aslo shubham yo'q edi. Bir do'st bo'lsa, shunchalik bo'ladi-da. O'lim bilan yuzma-yuz turgan chog'da ham do'stini o'ylaydigan sodiq do'stim bo'lgani qanday yaxshi. Bo'ri bo'ri-da. Mening ichki tuyg'ularimni tushundi. Ko'zlariga yosh oldi. Lekin fikridan qaytmadi.

– Do'stingiz hurmati. Men faqat sen bilan olishaman, – dedi u ko'zlarini muloyimgina ochib-yumib. Yopiray! Bo'ri odamga o'xshab gapirsa-ya. Matrayim u yoqda, men bu yoqda angrayib qoldik. Tushimmi, o'ngimmi o'zimmi chimchilab ko'rdim. O'zgarish yo'q.

– Ha, bo'laqol. Nega to'xtab qolding? – bu bo'rilar sardorining ovozi edi.

– Mendan qo'rqayapti deb o'yilasang, xato qilasan. Men boks bo'yicha chempionman. Bryus Li, Van Dam va Hamdam ustozim bo'ladi, – dedim boks qo'lqopimni ko'tarib.

– Ha, ha, u chempion. Undan ehtiyot bo'lish kerak. Aytganicha, qachon chempion bo'luyding? – dedi Matrayim ko'zini lo'q qilib.

– Tomi ketgan! Esingdan chiqdimi? – dedim yolg'onidan do'q urib.

– Esimda bo'lsa, o'lay agar.

– Espast...

(Davomi bor)

YER VA TERAKNING TORTISHUVI




Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Qadim-qadim zamonda, siz bilmagan tomonda bir terak o'sar ekan. Uning bo'yi judayam baland ekan. Terak doim «Men hammangizdan kattaman, bo'yim hammadan baland», deb maqtanib, boshqa daraxtlarni kamsitar ekan. Bir kuni terak Yer bilan tortishib qolibdi.

U Yerga qarab: «Men sendan balanddaman, sen bechora esa pastdasan», debdi. Bu gapdan ranjigan Yer: «Sen o'zingga ko'p bino qo'yasan, maqtanchoqsan, o'ylamay gapirasan, men bo'lmasam sen qanday o'sasan? Axir tomiring mening bag'rimda ildiz otgan bo'lsa?» debdi.

Bu gapni eshitgan terakning uyatdan barglari qizg'ish rangga kiribdi.

Diyorbek DONIYOROV,
Sirdaryo viloyati,
Boyovut tumanidagi 13-umumta'lim maktabi o'quvchisi



Yoz kunlarining birida biznikiga ammalar mehmon bo'lib keldilar. Hovlimizning musaffo havosi, mahallamizning xush manzaralarini maqtab gapirgan ammam, «Qani, hozir bir o'rikxo'rlik qilsak», deb qoldi. Shunda dadam men va ukamga qo'shni xolaning chorbog'idan o'rik terib kelishni buyurdi. Biz oshxonadan chelakni oldik-da, ko'chaga chiqdik. Uymizdan chorbog'gacha yarim kilometrli yo'l edi. Xolaning uyi esa bog' yaqinida joylashgan. Men



– UZR, xola, terganlarimizni o'zingizga qaytarib beramiz, – dedim men.

Ammo xola xotirjam ohangda:

– Hojati yo'q, osh bo'lsin, olaveringlar. Lekin, keyingi safar o'rik termoqchi bo'lsangiz, mendan ruxsat so'rang, – deya javob berdi.

Biz hijolat bo'lgan-cha uyga qaytdik. Ammam va dadam bizni maqtaym a q t a y

ONAMNING O'GITI

shoshildimmi yoki baribir egasi «yo'q» demaydi, degan xayoldami, qo'shni xoladan ruxsat so'ramadim. Shunda ukam:

– So'ramay olsak qanday bo'larkin?!

– deya o'ylanib qoldi. Men esa:

– Ey, hech narsa qilmaydi, – dedim-u bog'ga kirib ketdim.

Ukam daraxtga chiqib, o'riklarni qoqa boshladi. Men ularni terib, chelakka soldim. Bir vaqt qarasam, ro'paramda bog'ning egasi turibdi. Ukam ham qo'shni xolani ko'rishi bilan daraxtdan tushdi. Biz boshimizni quyi eggancha u kishidan uzr so'radik:

o'riklardan yeya boshlashdi. Biz esa nima deyishni bilolmay jim o'tiraverdik. Oradan bir necha kun o'tgach, o'sha kungi noxush voqea haqida onamga so'zlab berdim. Onam bizga tanbeh berar ekan, birovning narsasini so'ramay olish, uning haqqiga xiyonat qilish bilan barobar ekanligini tushuntirdi. Biz bunday noma'qulchilikka qayta qo'l urmaslikka va'da berdik.

Sherzod SIROJEV,
Toshkent shahar, Yashnobod tumanidagi 255-umumta'lim maktabi o'quvchisi

«CHORSHANBA – BOLALAR KUNI» TADBIRLARI DAVOM ETADI

Ayni kunlarda maktab o'quvchilarining yozgi ta'til damlarini mazmunli tashkillashtirish maqsadida poytaxtimizning G'afur G'ulom nomidagi madaniyat va istirohat bog'ida an'anaviy «Chorshanba – bolalar kuni» doirasida ko'ngilochar tadbirlar tashkil etilmoqda.

Bog'da faoliyat ko'rsatayotgan Olimjon Sodirjonov boshchiligidagi Qo'g'irchoq teatri artistlari bolalar uchun bir-biridan qiziqarli spektakllar namoyish etishmoqda.

Yaqinda bog'ning tantanalar maydonida «MADAGASCAR LIVE» MCHJ firmasi tomonidan bog' qoshidagi badiiy jamoalari bolalar uchun maxsus shou dasturi tashkil etildi. Tadbirda mingdan ortiq bolajonlar qatnashdilar. Ayniqsa, «Ulug'bek yulduzlari» vokal ansambli xonandalarining konserti va qo'g'irchoq teatrlarining tomoshasi, bolajonlar ishtirokidagi turli viktorina o'yinlari davraga fayz kiritdi.



Farg'ona viloyati, Qo'qon shahridagi 18-umumta'lim maktabida Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan 5 ta muhim tashabbusning ikkinchi yo'nalishi ijrosini ta'minlash bo'yicha sport to'garaklari tashkil etilgan.

TA'TIL MAKTABDA O'TMOQDA

Sport to'garagi rahbarlari Dilnoza Rahimova, Azizjon Yusupov, Ilhomjon Nabiyeov va Elbek Jonto'rayevlar o'quvchilar bilan muntazam shug'ullanmoqdalar.

– Ta'til davri bo'lishiga qaramay, maktabimiz o'quvchilar bilan gavjum. 5 ta muhim tashabbus bo'yicha belgilangan, yoz mavsumida o'quvchilarni mazmunli dam oldirish, sog'lomlashtirish hamda mavsumni yuqori saviyada o'tkazishlari uchun madaniyat, sport to'garaklari, axborot texnologiyalari, kitob o'qishga bo'lgan qiziqishlariga qarab to'garaklar ko'tarinki ruhda ish yuritmoqda, – deydi ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Dilafroz Raupova.

Yaqinda maktabda bo'lib o'tgan sport musobaqalarida faol ishtirok etib, faxrli o'rinlarni egallagan 9-«V» sinf o'quvchilari Abdumalik Husanxonov, Doniyor Shokirov, Diyov Ahmedov, Muzaffar Yo'ldoshev, Hazratihizr Abbosxonov va Shukurillo Mahmudovlardan tuzilgan jamoa maktab ma'muriyati faxriy yorliqlari va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.



LOTIN AMERIKASI YOZUVCHISI GABRIEL GARSIA MARKESNING SO'NGGI MAKTUBI

Agarda Tangri menga yana ozroq umr berganda edi, men xayolimga kelgan har bir so'zni aytmagan bo'lardim, ehtimol.

Men gapirishdan oldin ko'proq o'ylab ko'rardim.

Men har bir narsani uning qiymatiga qarab emas, balki ahamyatiga qarab baho bergan bo'lardim.

Kam uxlab ko'proq orzu qilardim, yumuq ko'zlarning har bir daqiqasi 60 soniyali yorug' dunyodan mahrum bo'lish demakdir.

Boshqalar tik turganda men yurardim, boshqalar uxlaganda men uyg'onardim, boshqalar gapirayotganda men tinglardim.

Shokoladli muzqaymoqdan to'yib-to'yib yegan bo'lardim.

Tangri menga yana ozgina umr berganda, men oddiygina kiyinardim, quyoshning ilk nuridan uyg'onardim, tanamni, qalbimni oftobga berardim.

Yo Tangrim, qaniydi, yana ozgina vaqtim bo'lganda edi, men nafratimni muzga aylantirib, quyosh chiqishini kutardim.

Men Van Gog kabi yulduzlar shu'lasida surat chizardim. Benedetti she'rlarini o'qib orzu qilardim.

Men atirgul tikani sanchig'i og'rig'idan g'unchalarni ko'zyoshlarim bilan yuwardim, gulbarglardan bo'sa olardim.

Yo Tangrim, mening umrimni ozgina uzaytirganingda, sevimli kishilaringa ularni yaxshi ko'rishimni aytish uchun biror kunning ham o'tkazmagan bo'lardim. Men qariganda odamlar sevishdan to'xtaydi, degan gaplarning yolg'onligini isbotlab berardim. Aksincha, odamlar sevishdan to'xtasa, qariy boshlaydi.




BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!

SIKLOVORD

Siklovord (aylanma krossvord) so'zlari 8 harfli bo'lib, har biri bo'sh kataklarga soat mili yo'nalishida yoziladi.

1. Respublikamizdagi yirik shahar.
2. Mumtoz zullisonayin shoir, «Zarbulmasal» asari muallifi.
3. Yurtimizdagi qumli cho'l.
4. Tustovuqning ikkinchi nomi.
5. Olapo'choq, shirin qovun navi.
6. Qiz bolalar ismi.
7. Ziravor o'simlik.
8. Push-ti, oq gul.
9. Sitrus o'simlik, meva.
10. Ommaviy sayl, bayram.
11. Ovchi yirtqich qush.
12. Omuxta yog'.
13. O'zi shisha parchasidan, bobom boqar darchasidan (Topishmoq).
14. Terak turi: tog'terak, oqterak ...?
15. Samarqand yuragi bo'lgan saylgoh maydon.
16. Bolalar aytishuv o'yini.



Tuzuvchi:
Anvar MIRZAZODA

8

1-iyul 2019

Tong yulduzi

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0208-raqam bilan 2019-yil 10-iyunda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAYATI:
Qahramon QURONBOYEV,
Dilshod KENJAYEV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA,
Ashurali JO'RAYEV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruza MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Sayyora QODIROVA

Rassom
Feruza KAMOL o'g'li

Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin
MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etildi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga bosmaxona mas'ul.
Manzili: Manzili: Navoiy ko'chasi, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100011.
Obuna indeksi: 198.
www.tongyulduzi.uz
e-mail: tongyulduzi1929@umail.uz
telegram: t.me/tongyulduz
Adadi - 6 300
Buyurtma - V 3555

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Shakli A-3, 2 bosma taboq. Bahosi kelishilgan narxda. Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi.
Topshirish vaqti - 18:00
Topshirildi - 18:00
Tel./faks: (99871) 244-63-08